

## TURKIY LUG‘ATLARDA QO‘LLANILGAN HARBIY TERMINLARNING LEKSIK-SEMANTIK TAHLILI (XI —XVII ASRDAGI LUG‘ATLAR MISOLIDA)

*Ismoilova Shahlo*

*TerDU, O‘zbek filologiyasi fakulteti talabasi*

*Ilmiy rahbar: Xidirova Iroda*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada turkiy lug‘atlarda keltirib o‘tilgan harbiy terminlarning hozirgi kundagi muqobili, so‘zliklarning leksik-semantik tahlili amalga oshirilgan.

**Kalit so‘zlar:** Harbiy termin, qurol-aslaha, "Devonu lug‘atut turk", "At-tuhfatuz zakiyatu fil-lug‘atit turkiya", "Muhokamat ul-lug‘atayn", leksik – semantik tahlil, qadimiy lug‘atlar.

Turkiy tilda yozilgan lug‘atlarda harbiy termin nomlarini ifodalovchi leksemalar anchagina keltirib o‘tilgan. Bu terminlar bugun paydo bo‘lgan emas. Har bir tilda o‘z shakllanish va rivojlanish bosqichlarida turli sohaga oid terminlar muhim ahamiyat kasb etadi. Terminlar turli sohalarga mansub bo‘lishi mumkin. Harbiy terminlar shu sohalardan biri hisoblanadi. Ular ma‘lum bir davrda o‘z ahamiyatiga molik bo‘lgan va shu davrda keng iste‘molda foydalanilgan. Harbiy leksika o‘zbek tili so‘z boyligi fondining ko‘hna qatlamlaridan biri sanalib, til tarixiy taraqqiyotining barcha boshqichlarida yaqqol ko‘zga tashlangan. Bu toifadagi terminlar leksema va semalarining mazmuniy bog‘liqligi bor. Harbiy terminlar davrlar o‘tib yanada kengaygan sari ularning davlatchilikda bir qancha shakllari ham vujudga kelmoqda. Moziyda bitilgan va hozirgi davrga qadar ma‘lum bo‘lgan manbalarning deyarli barchasida harbiy ish va harbiy san‘atga oid istilohlar keng qo‘llanishda bo‘lganligi bilan ajralib turadi.

Endi Mahmud Koshg‘ariyning "Devonu lug‘atut turk" (keyingi o‘rinlarda MK), Alisher Navoiyning "Muhokamat ul-lug‘atayn" (keyingi o‘rinlarda ML), "At-tuhfatuz zakiyatu fil-lug‘otit-turkiya" (keyingi o‘rinlarda "At-tuhfat") kabi lug‘atlarda keltirib o‘tilgan qurol-aslaha nomlarining lingvistik tahlili amalga oshirildi. So‘zliklarning turli davrlarda tuzilgan lug‘atlar asosida o‘xshashlik va farqli jihatlarini ko‘rib chiqildi.

Statistik metodga ko‘ra, "MK" ning 1-jildida 50 ta, 3-jildida 8 ta, "At-tuhfat"da 14 ta, "ML" da esa 3 ta so‘zliklar berilgan. Ushbu asarlar asosida qurol-aslaha nomlarining leksik-semantik tahlili ko‘rib o‘tildi. "MK" asarining 1-jildida "tuzoq" so‘zining ikki xil variantini masalan: "Кісмак" (439-bet), "Учлүч" (120-bet) shaklini ko‘rishimiz mumkin, "ML" asarida "Dom" shaklida, "At-tuhfat" asarida esa "Тузак"

(95-bet) shaklida kelgan. Demak, lug'atlar tarkibidagi so'zliklarni ko'rib chiqar ekanmiz, qurol-aslaha nomlariga quyidagilar kiradi: ашук — temir qalqon, dubulg'a (97-bet), Ёкдў — qilich qini va bunga o'xshash narsalarni o'yish uchun qo'llanadigan uchi egri pichoq (145-bet), Қалва — temirsiz, uchi dumaloq yog'ochdan qilingan o'q (402-bet), Кіш курман — o'q va yoy solinadigan idish (405-bet), Қіліч — qilich (340-bet), Бўкда — xanjar (395-bet), Туғру — qilich, pichoq, xanjar dastalariga kirgiziladigan bandlari (397-bet), Кэсмä — eni ensiz uzun temir nayza (402-bet), Башакліғ сөцу — tishli nayza, temirli o'qqa ham bu so'z qo'llanadi (465-bet), Сўрпи — uchi nayza kabi o'tkir narsa (398-bet), Кіш қуруғлуқ — o'q xaltasi (462-bet), јасіч — o'qning yassi va uzun uchi (14-bet)— "МК" ning 1-jildida, јітіғ бічәк — o'tkir pichoq (25-bet), Сап — qilich, yoy, pichoq sopi (158-bet)— "МК" ning 3-jildida, ічак — pichoq (48-bet), Суспор — to'qmoq (55-bet), Апрақ — o'q, yoy (48-bet), Тумов — buni Turkmanlar кішән (kishan) deb ataydi (73-bet), Қіліч — qilich (69-bet)— "At-tuhfat" da, Baxli – ovchining qush qo'ndiradigan charm qo'lqopi (31-bet), Guruxa kamon – to'garak, aylanma kamon (33-bet)— "ML" da shu ko'rinishda kelgan. Ko'rib turganimizdek, qadimda ham harbiy terminlar nomlari juda faol qo'llangan.

Ushbu so'zliklarni ba'zi xususiyatlariga ko'ra quyidagi turlarga ajratamiz. Himoya vositasi sifatida qo'llaniladigan qurol-aslaha nomlaridan "qalqon" so'zi "МК" ning 1-jildida "ашук", 3-jildida "јішікліғ" shu tartibda berilgan bo'lsa, "At-tuhfat" da "қалқан", "тәмір қалқан" so'zlari uchraydi. "МК" asarining 1-jildida o'q va unga aloqador so'zlar lug'ati quyidagi tartibda berilgan: "азук оқ" — yashirin o'q (74-bet), улун — uchsiz o'q (70-bet), Қалва — temirsiz, uchi dumaloq yog'ochdan qilingan o'q (402-bet), іл көкән — o'q; yoy (393-bet), чіғілвар оқі — kichik, kalta o'q (455-bet), Қуруғлуғја — qurilgan o'q, yoy (457-bet) shaklida 3-jildida јатан — paxtani, yungni titadigan o'q (304-bet), сунгу — nayza (378-bet), "At-tuhfat" da esa апрақ — o'q, yoy (48-bet), абрақ — teri yoyi (46-bet) tarzida berilgan. "Ov" so'zi "At-tuhfat" asarida 2 xil ko'rinishda kelgan. Bular: "аблақ" — ov (77-bet) hamda "мамрах" — ov (95-bet). Lug'atlarda berilgan kesish, qirqish vazifasini bajaruvchi qurol-aslaha nomlarining quyidagi tartibda berilganligini ko'rishimiz mumkin: "МК" ning 1-3- jildlarida ёкдў — qilich qini va bunga o'xshash narsalarni o'yish uchun qo'llanadigan uchi egri pichoq (145-bet), бічәк — pichoq (366-bet), қіліч — qilich (340-bet), қонағу — nashtar (418-bet), кәркі — o'roq, tanda (405-bet), јітіғ бічәк — o'tkir pichoq (25-bet) shaklida, "At-tuhfat" da esa пічак — pichoq (48-bet) leksemalari kelgan.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, yuqoridagi manbalarda ishlatilgan harbiy termin nomlari lingvistik, leksik- semantik nuqtai nazardan chuqur tahlil qilindi va nafaqat o'zbek tilshunosligidagi o'rni ochib berildi desak mubolag'a bo'lmaydi. O'sha davrda

yashagan insonlarning o'z ehtiyojiga ko'ra qurol-aslaha nomlarini turlicha ataganlar. Davrlar o'tishi bilan lug'atlarda ham fonetik, leksik, grammatik o'zgarishlar yuz beradi va lug'at boyligi ham avlodlar almashinishi natijasida yangilanaveradi. Ushbu lug'atlar orqali tilimizning qanchalik boy ekanligiga yana bir bora guvoh bo'ldik.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mahmud Koshg'ariy. Turkiy so'zlar devoni (Devonu lug'otit turk). – Toshkent: Fanlar Akademiyasi, 1963.
2. Attuhfatuz zakiyatu fillug'atit turkiya [Turkiy til (qipchoq tili) haqida noyob tuhfa]. – Toshkent: Fan, 1968.
3. Alisher Navoiy “Muhokamat ul-lug'atayn”
4. Xidirova, I. ., & Jo'rayeva, M. (2023). LEXICAL-SEMANTIC ANALYSIS OF DIALECTISMS USED IN THE WORK OF ART (IN THE EXAMPLE OF THE WORK "ROCKS ALSO CRY"). *Modern Science and Research*, 2(3), 142–144.
5. Xidirova, I., & Jo'rayeva, M. (2023). LEXICAL-SEMANTIC ANALYSIS OF KINSHIP NAMES USED IN ANCIENT TURKISH DICTIONARIES. *Modern Science and Research*, 2(4), 716-719.
6. Abdulhakimovna K. M. Transcription in the corpus of the uzbek national boysun dialect (on the example of Baysun district "j" dialects) //Journal of Critical Reviews. – 2020. – T. 7. – №. 5. – С. 844-847.
7. Холова М. А. BOYSUN SHEVASI ONLAYN MA'LUMOTLAR BAZASI (QIDIRISH VA SARALASH IMKONIYATLARI ASOSIDA) //МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА. – 2021. – Т. 4. – №. 1-1.
8. Холова М. А. ШЕВАЛАР КОРПУСИНИНГ ЖАНРИЙ ТЕГЛАШНИНГ ЛИНГВИСТИК АСОСЛАРИ //МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА. – 2021. – Т. 4. – №. 4.
9. Холова М. А. О'ZBEK SHEVALARINING STANDART TILGA MUNOSABATI VA TIL TIZIMIDAGI O'RNI (BOYSUN TUMANI “J” LOVCHI SHEVALAR MISOLIDA) //МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА. – 2020. – Т. 3. – №. 5.
10. Холова М. А. BOYSUN SHEVASI KORPUSI: IBTIDO (BOYSUN TUMANI “J” LOVCHI SHEVALAR MISOLIDA) //ИННОВАЦИИ В ПЕДАГОГИКЕ И ПСИХОЛОГИИ. – 2020. – №. SI-2№ 5.
11. Abdulhakimovna X. M. Baysun dialekt corpus: Genesis (Baysun district is in the case of “J” dialect) //Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR). – 2020. – Т. 9. – №. 2. – С. 224-228.
12. Xolova M. A. SHORT NOTES PHYTONYMS BAYSUN IN DIALECTS LEXIKOLOGY //Scientific Bulletin of Namangan State University. – 2020. – Т. 2. – №. 3. – С. 310-317.